

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

**“БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ
ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ
ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**

МАТЕРИАЛЛАРИ

2020 йил 29 апрел

БУХОРО - 2020

Bu topishmoqda kitobning ilmga kon, mazmunga makonligi, hikmatga boyligi, odob o'rgatishi, shuning uchun unga hamisha do'st va ulfat bo'lish lozimligi uqtilarmoqda.

Oyog'i yo'qki, lekin pastga qarab **chopadi**.

Bog'-rog'lar-u sahrolar undan hayot topadi.

Agar chiqmasa **quyosh**, xafa bo'lib **to'kar yosh**.

Javobi bulut va yomg'ir bo'lgan ushbu topishmoq matni 1-sinf "Ona tili" darsligining "O'quv yili oxiridagi takrorlash" bo'limida 181-mashq uchun berilgan. Mashq shartiga binoan ajratilgan so'zlarga so'roq berish, ular nimani bildirayotganini aniqlash vazifasi yuklatilgan. Jami 5 ta gapdan tuzilgan bu topishmoq matni tarkibidagi birinchi gapda ega va kesim, uchinchi gapda sanash ohangi bilan aytilgan uyushiq bo'laklar, to'rtinchi va beshinchi gaplarda inversiyaga uchragan ega va to'ldiruvchi ajratib ko'rsatilgan.

Birinchi sinf ona tili darsligi uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda "Tovushlar va harflar" o'rgatilishi ko'zda tutilgan. Bu bo'limda, asosan, fonetikaga oid bilimlar: tovush va harf, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, tutuq belgisi, alifbo, bo'g'in, so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish haqida tushuncha berishga qulay topishmoqlar tanlangan.

Ikkinchi bo'lim "So'z" deb nomlangan. Bu bo'limda, demak, leksikologiyaga oid: so'zning ma'nosi, shaxsni va narsani bildirgan so'zlar, kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi, joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi, hayvon nomlarining bosh harf bilan yozilishi, harakatni bildirgan so'zlar, belgini bildirgan so'zlar, sanoqni va tartibni bildirgan so'zlar haqida bilim berishga qaratilgan topishmoqlar tanlangan. Bunda ot, fe'l, sifat, son atamalarining izohi orqali ularga ishora qilinadi.

Uchinchi bo'lim "Nutq. Gap" deb nomlangan. Bu bo'limda og'zaki nutq va yozma nutq, gap haqida tushuncha berilishi ko'zda tutilgan va shunga mazmunan va shaklan mos topishmoqlar tanlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, topishmoqlar nafaqat o'quvchining mantiqiy fiklashini, balki nazariy-amaliy bilimini shakllantiradi.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

*G. T. Cho'liyeva,
BuxDU o'qituvchisi*

Maqolada boshlang'ich maktablarda nutq ko'nikmalarini rivojlantirish talablari va bu talabni qondirish uchun nima qilish kerakligi, shuningdek, nutq darslariga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: *nutq, o'qish, o'qitish, metodologiya, talablar.*

В статье рассматриваются требования к развитию навыков речи в классах начальной школы, и что нужно сделать, чтобы удовлетворить это требование, а также требования к урокам разговорной речи. порез.

Ключевые слова: *речь, чтение, обучение, методика, требования.*

The article discusses the requirement to develop speaking skills in primary school classes, and what needs to be done to meet this requirement, and the requirements for speaking lessons. cut.

Key words: *nutq o'stirish, o'qish fani, ta'lim tizimi, usul, talab.*

Mustaqil O'zbekistonimiz rivojlanishning yangi davrini, ta'kidlash joizki, o'ziga xos shiddatli davrini boshidan o'tkazmoqda. Jamiyatimizning har bir bo'g'inida rivojlanishlar

jadal. Bularning barchasi insonlarning yaxshi hayot kechirishi, kelajagining yorqin bo'lishi uchun urinishdir.

Bu o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimiga ham tegishli bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev: "Moddiy va ma'naviy hayotimizni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'gin bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur", - deb ta'kidlagan edi. Yosh avlod shaxsini shakllantirish vazifasini esa umumiy o'rta ta'limning samarali pedagogik-psixologik metodlarini yaratib, amaliyotga joriy etmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash va yuqori sinf fanlarini o'zlashtira olish uchun zamin yaratish bu bosqichning barcha fanlari oldida turgan asosiy maqsadlardan biri bo'lib, o'quvchi-yoshlarning og'zaki va yozma nutqining rivojlanishi ham shu bosqichning amaliy natijasidir. Bu vazifani amalga oshirishda esa, ayniqsa, ona tili va o'qish fanlarining o'rni beqiyos. Sababi bugungi kun ona tili ta'limi sifatiga qo'yilgan talab har bir o'qituvchi oldiga o'z ona tilisida mustaqil fikrlay oladigan hamda uni yozma va og'zaki shaklda erkin ifodalaydigan o'quvchi yoshlarni tarbiyalash² vazifasini qo'yadi. Nutqi rivojlangan o'quvchilar faqat o'qish va yozuv darslaridagina emas, balki boshqa darslarda ham bilimlarni puxta o'zlashtirishga to'laqonli erishadilar. Nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchilar uchun esa dars mavzularini o'zlashtirish oson kechmaganiday, jamiyatda shaxslararo munosabatlarini yo'lga qo'yish, real hayotga kirishish, demakki, jamiyatda o'z o'rinlarini topishga ham qiynaladilar. Shuning uchun ham ona tili dasturining barcha bo'limlariga nutq o'stirish vazifalari singdirilgan³. Bu mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaning samaradorligini ta'minlash, jumladan, ona tili va o'qish darslarida puxta bilim, ko'nikma va malakani hosil qildirish muhim ahamiyatga ega.

I-sinf o'qish kitobida Erkin Malikning "Suv - shifo" hikoyasi berilgan⁶ bo'lib, o'quvchilarning ongiga jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, suvdek qimmatli tabiat ne'matini asrash kabi bir qancha g'oyalarni singdirishga xizmat qiladi. Hikoyani o'tish darsi sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'lishdan boshlanadi. Guruhlarga "So'zli tasavvurlar" o'yin topshirig'i berilib, unga ko'ra guruhlarga bittadan so'z yozilgan kartochkalar tarqatiladi: "suv", "sport", "sog'lik". O'quvchilar bu so'zlarni o'qiganlarida tasavvurlariga kelgan boshqa so'zlarni ham kartochkalarga yozishlari kerak. Topshiriq bajarib bo'lingach, o'quvchilarga ifodali o'qitiladi va guruh o'quvchilaridan nega bu so'zlarni yozganliklarini izohlash so'raladi. Bu usul bilan o'quvchining mustaqil fikrini to'g'ri va ravon ifodalay olishga, og'zaki nutqini shakllantirishga, bundan tashqari, savolga javob bera olish ko'nikmasini o'stirishga erishiladi.

Keyingi bosqichda hikoya o'qituvchi tomonidan ifodali o'qiladi hamda o'quvchilardan tushunganlarini qayta hikoyalab berish so'raladi. Bu topshiriq uchun "Mozaika" o'yin topshirig'idan foydalaniladi. Topshiriq shartiga ko'ra guruhlarga o'qituvchi bir hikoya matnidan olingan parchalarni topshiradi. O'quvchilar bu parchalarni ketma-ketlikda joylashtirib, ifodali so'zlab berishlari kerak. O'qituvchi o'quvchining nutqini nazorat qilib turadi, so'zlarni aniq talaffuz qilayotganiga e'tibor berib, mazmunli va reja asosida gapirishga o'rgatib boradi. Hikoya matni tahliliga kirishganda o'quvchilarga asardagi talaffuzi qiyin yoki tushunarsiz so'zlar izohlanishi, lug'at tuzdirilishi hamda ma'nolari izohlanib, mavzudan tashqari gap tuzdirish kerak.

Darsning so'nggi bosqichida "Suv - shifo" hikoyasi darsi umlashtiriladi va xuslosalanadi. Bunda "Ikkitasi to'g'ri, bittasi noto'g'ri" usulidan foylanish yaxshi samara beradi. Topshiriq shartiga ko'ra hikoya mazmuniga mos va mos bo'lmagan fikrlar

audioyozuv orqali o`qib eshittiriladi. O`quvchilar hikoya mavzusiga mos fikrni e`tibor bilan ajratib olishlari, mos bo`lmagan fikrni esa inkor qilishlari lozim. O`qituvchi ulardan noto`g`ri fikrni to`g`rilab aytishlarini so`raydi. Bu usul orqali o`quvchilarda og`zaki nutqini rivojlantirishdan tashqari o`zgarlar nutqiga diqqatli bo`lish, bildirilgan fikrga o`z mulohazasini ham erkin ayta olish ko`nikmalari shakllantiriladi.

O`qish darslarida o`quvchilar yozma va og`zaki nutqini o`stirishga qaratilgan yuqoridagi kabi usullardan foydalanishda quyidagi shartlarga e`tibor qaratish lozim:

- badiiy asar g`oyasi tahliliga qaratilgan usullar o`quvchi yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi;

- tahlilga tortilgan asar g`oyasi va mazmuni o`quvchining dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o`stirish, kengroq ma`lumotlarga ega bo`lishi uchun zamin yaratishga yo`naltirilib izohlab berilishi;

- tahlil uchun usul tanlayotganda dars bosqichlari va vaqtga e`tiborli bo`lish;

- asar bosh g`oyasi va mavzusidan chetga chiqib ketmaslik;

- o`quvchi nutqidagi kamchiliklarga bee`tibor bo`lmaslik;

- og`zaki va yozma nutqini o`stirishda ko`proq so`z boyligini oshirishga va bu so`zlarni tushunib, ongli qo`llay olish ko`zikmalarini shakllantirish;

- o`quvchiga turli bayon usullaridan (qisqa, batafsil hikoya qilish) foydalanishga;

- yozayotgan yoki aytayotgan nutqini relashtirib ifodalashga o`rgatish kabilar.

Muxtasar qilib shuni aytish mumkinki, o`qituvchi mavzuning o`quvchiga to`laqonli tushunarli bo`lishini ta`minlashi uchun dars jarayonida o`quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan, interfaol usullardan unumli foydalanish va shu bilan o`quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirish – ta`lim samaradorligi hamda sifatini oshirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta`limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning jamiyatdagi nufuzi va malakasini, yosh avlod ma`naviyatini yuksaltirish masalalariga bag`ishlangan videoselektordagi nutqidan.

2. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" – T.: 1997.

3. Davlat ta`lim standartlari. – T.: "Sharq", 2017-yil.

4. Эммухаммедов Р. ва бошқалар. Таълимда инновацион технологиялар. –Т.: 2008.

5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: "Nasaf", 2000-y.

6. G`afforova T., Nurullayeva Sh. O`qish kitobi. 1-sinf. – T.: "Sharq", 2016-yil, 16-bet.

Internet saytlari:

7. ziyonet.uz

8. aim.uz